

MILLIY AN'ANALAR ASOSIDA YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA ONA  
TILINING O'RNI

Jabborova Maftuna Komil qizi

*ShahDPI Pedagogika fakulteti, "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi*

Izzatullayeva Dildora

Toshtemirova Dilonora

*ShahDPI Pedagogika fakulteti, "Maktabgacha ta'lim" kafedrası talabalari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ona tilimizning qay darajada ahamiyatli ekanligi hamda milliy an'analarimizning bola tarbiyasidagi ta'siri haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Turkiy tillar, ona-tili, urf-odat, qadriyat, mehmondorchilik, salomlashish odobi, "Alla" qo'shig'i.*

**Аннотация:** *В этой статье представлена информация о важности нашего родного языка в воспитании детей и о влиянии наших национальных традиций на воспитание детей.*

**Annotation:** *This article provides information on the importance of our mother tongue in the education of children and the influence of our national traditions on child education.*

Dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri bolmish o'zbek tili xalqimiz uchun juda ahamiyatlidir. Shuning bilan birga milliy o'zligimiz, mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik va buyuk qadriyatdir. Kimda kim O'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bolsa, munis onalarimizning allarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan ozbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali o'z fikrlarini bildirib, so'zlarini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar. Otmishda o'lkamizni bosib olgan turli xildagi yovuz kuchlar bizni avvalo o'z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, dinimizdan diyonatimizdan voz kechishga majburladilar. Ular el-yurtimiz boshiga qanday azob- uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan bizga yaxshi ma'lum.

Bundan besh asr muqaddam hazrat Alisher Navoiy o'z g'azallarida shunday jummalarni bitganlar:

"Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yak qalam"

Ya'ni, Alisher Navoiy bobomiz bu so'zlari bilan ona tili bayrog'ini baland ko'tarib, butun el-ulusni yurtlarni shu bayroq ostida birlashtirdim, deb iftixor qilgan.

Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini korsatadigan muhim jihati va hayoti bu uning milliy tili hamda adabiyotidir.

Ona tilimiz- milliy ma'naviyatimizning bitmas- tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom korsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir. Davlat tiliga bo'lgan doimiy etibor va gamxo'rlik mamlakatimizda bundan keyin ham izchil davom ettiriladi.

Tilimizni keng targ'ib qilish, kelajagimiz tayanchi bo'lmish barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning har tomonlama yetuk inson bolib kamol topishiga ko'maklashish, iqtidorlarini yanada rivolantirish maqsadida Muhammad Rino Ogahiy Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon, Zulfiya, Ibrohim Yusupov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva va Muhammad Yusuf nomidagi ma'rifat maskani deb atalmish ijod maktablari qad rostlagani va "Adiblar hiyoboni" majmuasining barpo etilishi ona tilimizning yuksaklarga ko'tarilganligidan darakdir. Yuqorida keltirilgan va yana bir qancha ma'rifat maskanlari til va adabiyotimiz qanchalik muhim darajada ekanligini, millatimiz uchun qanchalik darajada ahamiyatli ekanligini yorqin dalilidir.

Inson uchun oliy ne'mat deb atalmish ona tili har bir millatning eng asosiy belgilaridan bo'lib, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek " Ona tili o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar va ajdodlar o'rtasidagi ruhan-ma'naviy bog'liqlik ustunidir.",- deya bejizga aytmaganlar.

Biz yashab turgan Yer sayyorasida xalqlar, millatlar va elatlar ko'p. Har bir xalq o'z tili, milliy urf-odatlari, qadriyat va an'alariga ega. Va o'ziga xos boshqa xalqlardan ajralib turadigan xislatlarga ega. Shunday ekan bizning O'zbek xalqimiz ham birinchi navbatda o'z tiliga, milliy urf-odatiga, qadriyat va an'alariga o'ziga xos turmush tarziga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Har bir xalqda yashovchi aholi dunyoni anglashni o'z tili bilan boshlaydi. Shu tili bilan muloqot qiladi, fikr yuritadi va o'z fikrini bildiradi. Nafaqat o'zbek xalqining ona tili balki, har bir millatning tili insonning shaxs bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilimiz eng ezgu fazilatlar, yuksak insoniy tuyg'ularga bo'ydir.

Milliy an'ana – o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda milliy an'alarimiz yetakchi o'rin egallaydi. Milliy an'alarimiz orasida yetakchi o'rin egallagan mehmondorchilik va salomlashish odobi, milliy an'alarimiz asosida o'tkaziladigan navro'z bayrami bunga yorqin misoldir. O'zbek xalqiga xos bo'lgan yana bir milliy an'anaga misol qilib, bola tug'ilishi bilan aytiladigan "Alla" qo'shig'idir. Onalarning qalb tug'yonidan yaraladigan alla qo'shig'i ona tilimizda aytiladi. Bola dastlab eshitadigan qo'shiq ham, til ham ona tilimiz orqali bola quloqlarida yangraydi va bola qalbiga yetib boradi.

Milliy an'alarimiz bolaning shaxs bo'lib shakllanishida qay darajada muhim ekanligini yuqoridagi fikrlarimizdan ko'rishimiz mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishda ham ona tilimizdan samarali foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub (qalblar seviklisi) - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 111 b

2. Xos Hojib Yusuf. Qutadg'u bilig (Saodatga yo'llovchi bilim) Hozirgi o'zbek tiliga tavsif va nashrga tayyorlovchi. Q. Karimov - T.: Fan, 1971. - 954 b.